

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI

Murtazoyeva Robiya No‘monovna ¹

¹ Axborot texnologiyalar va menejment universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi 1-kurs BT-29-24-guruh talabasi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 03.06.2025

Revised: 04.06.2025

Accepted: 05.06.2025

KALIT SO‘ZLAR:

XXI asr ko‘nikmalari,
boshlang‘ich ta‘lim,
xalqaro tajriba

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘limda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi yoritilgan. Unda zamonaviy ta‘lim jarayonida zarur bo‘lgan tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi tahlil qilingan. Xalqaro tajriba misolida bu ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar o‘rganilgan va O‘zbekiston amaliyotida olib borilayotgan islohotlar bilan solishtirilgan. Muallif tomonidan milliy ta‘lim tizimida ushbu ko‘nikmalarni samarali joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bildirilgan.

KIRISH. XXI asrga kelib, ta‘lim tizimidan kutilyotgan asosiy vazifalardan biri – shunchaki bilim berish emas, balki o‘quvchilarda muhim hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib qoldi. Dunyo bo‘ylab boshlang‘ich ta‘limga yondashuv keskin o‘zgarib, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash va muloqot qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilmoqda. UNESCO (2021) ta’kidlashicha, yangi davrda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lish uchun bolalar yoshligidanoq raqamli savodxonlik, axborot tahlili, muammolarni hal qilish, ijtimoiy javobgarlik kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Ushbu maqolada Finlyandiya, Singapur va Yaponiya kabi ilg‘or ta‘lim tizimlariga ega mamlakatlarning boshlang‘ich ta‘limda XXI asr ko‘nikmalarini qanday joriy etayotganiga nazar tashlanadi. Shuningdek, O‘zbekistonda olib borilayotgan

islohotlar bu borada qanday natijalar bermoqda, qanday imkoniyat va to'siqlar mavjudligi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJA.

Ta'lim bo'yicha mutaxassislar (Trilling & Fadel, 2009) XXI asr uchun eng zarur bo'lgan 4 asosiy ko'nikmani aniqlagan:

Critical thinking (tanqidiy fikrlash)

Creativity (ijodkorlik)

Collaboration (hamkorlikda ishlash)

Communication (samarali muloqot)

Bu 4C modeli AQSh, Kanada, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Osiyo mamlakatlari boshlang'ich ta'lim tizimida o'quv dasturlariga kiritilgan. Masalan, Singapurda boshlang'ich sinf o'quvchilariga hayotiy muammolarni hal qilish uchun guruhli ishlar, loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning – PBL) kabi metodlar tatbiq etiladi.

Xalqaro tajriba va undan olingan malumotlar:

Finlyandiya boshlang'ich ta'lim tizimi bolalar qiziqishi va ehtiyojlariga moslashtirilgan. U dunyodagi eng ilg'or va muvaffaqiyatli tizimlardan biri hisoblanadi. Bu yerda o'quvchilar darsda ko'proq muammolarni tahlil qilish, bahs-munozara qilish, amaliyotda sinab ko'rish orqali o'rganadilar. Maktablar o'z dasturlarini mustaqil ishlab chiqish huquqiga ega. 2016-yildan boshlab phenomenon-based learning (hodisa asosida o'rganish) tizimi bosqichma bosqich joriy qilindi.

Singapurda "21st Century Competencies" dasturi asosida boshlang'ich sinflardan oq ijtimoiy-emotsional rivojlanish, jamoada ishlash va texnologik savodxonlikka alohida urg'u beriladi. Darslar zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan, o'qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish kurslari mavjud.

Yaponiyada "ikigai" (hayotda maqsad topish) tamoyiliga asoslangan holda, ta'lim jarayonida o'quvchining jamiyatga foydali shaxs bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich bosqichda guruh ishlari, o'z-o'zini baholash, axloqiy tarbiya (moral education) mustahkam o'rnatilgan.

O'zbekiston amaliyoti: islohotlar va imkoniyatlar

O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish va XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish yo'nalishida muhim qadamlar qo'yilmoqda. 2017–2021 yillar mobaynida amalga oshirilgan "Ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi" doirasida boshlang'ich sinf o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi. Xususan: 2022-yilning yangilangan o'quv dasturlarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, muloqot qilish, jamoada

ishlash, raqamli savodxonlik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarga o'rin berildi. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha ilg'or o'qituvchilar tayyorlash uchun "Ustoz-avlod", "Innovatsion maktab" kabi tajribaviy loyihalar yo'lga qo'yildi. Raqamli ta'lim resurslari (Milliy platforma: uzedu.uz, bilim.uz) orqali mustaqil o'rganish, video darsliklar, interaktiv o'yinlar orqali bilim olish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda bolaning shaxsiy rivojlanishi, qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'lim berishga e'tibor kuchaymoqda. Har bir o'quvchining o'z qobiliyatiga qarab rivojlanishi uchun differensial yondashuv va ijodiy topshiriqlardan foydalanish amaliyoti kengaymoqda. Dars jarayonlari endi faqat bilim berishga emas, balki bolada mustaqil fikrlash, muloqot qilish, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Eng muhimi, bugungi islohotlar o'qituvchining faqat bilim uzatuvchi emas, balki tarbiyachi, yo'l ko'rsatuvchi, hamfikir sifatidagi rolini mustahkamlab bormoqda. Shu sababli zamonaviy boshlang'ich ta'limda "insonparvarlik", "bolaga ishonch" va "motivatsiya" markaziy qadriyat sifatida qaralmoqda.

Xulosa va takliflar

"O'zbekiston ta'lim tizimida o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, erkin fikrlash va savol berish madaniyatini qo'llab-quvvatlovchi muhit yaxshi shakllanib bormoqda. Maktablarda interfaol usullar, ochiq muloqotga asoslangan darslar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, xatolardan o'rganishi va bahs yuritishi rag'batlantirilmoqda. Bu esa XXI asr ko'nikmalarining ildiz otishiga real zamin yaratmoqda."

XXI asr bolalari global muammolar bilan yuzma-yuz keladigan, tez o'zgarayotgan dunyoda yashamoqda. Ularni bu dunyoga tayyorlash uchun boshlang'ich bosqichdan quyidagilarni amalga oshirish muhim: 1. O'qituvchilarni XXI asr pedagogikasi bo'yicha muntazam malakadan o'tkazish. 2. Darslik va o'quv dasturlarini 4C modeliga mos tarzda ishlab chiqish. 3. Baholash tizimini o'quvchining fikrlashi, izlanishi va ijodiy yondashuvini rag'batlantirishga yo'naltirish. 4. Raqamli vositalar, onlayn platformalar va o'yin texnologiyalarini dars jarayoniga samarali integratsiya qilish. 5. Ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash, chunki bola faqat maktabda emas, oilada ham XXI asrda yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlari:

1. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. Jossey-Bass.

2. UNESCO (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education.

3. Finnish National Agency for Education (2016). National Core Curriculum for Basic Education.

4. Ministry of Education Singapore (2019). 21st Century Competencies Framework.

5. OECD (2018). The Future of Education and Skills: Education 2030 Framework.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (2022). Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.

7. Ziyodova, M. (2023). “Boshlang‘ich ta’limda kreativlikni rivojlantirishning metodik asoslari.” – Ilm-fan va innovatsiya, №1.

8. Алланазаров, М. (2018). Вопросы мистицизма и гностицизма в теории познания Табата. *Востоковедения*, 3(3), 124-134.

9. Khayitovich, A. M. (2025). Social-Pedagogical Aspects of Forming Personal Qualities. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 39, 161-164.

10. Xayitovich, A. M. (2025). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SHAXSIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY–PEDAGOGIK JIHATLARI. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(5), 77-82.

